



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
INSON RESURLARI VA MAHALLA
TARAQQIYOTINI BOSHQARISH
INSTITUTI



TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Molyaviy tahlil" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi iqtisodiy sub'ektlarning molyaviy holatini ifodalovchi turli axborot manbalaridan foydalangan holda ularning fuoliyatidagi moddiy, molyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanilayotganligi haqida bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iboratdir.

Ushbu fan "Molyaviy tahlil" deb nomlanib, unda sizga iqtisodiyot sub'ektlarining molyaviy holatiga xolisona baho berishni o'rganish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni imkoniyatlarni aniqlash, ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini talabalar shakllanishidan iboratdir.

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalanishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

"Raqqamli iqtisodiyot" kafedrasida

dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Abduraimov B.M



Ro'yxatga olindi:

№ BD- 60410600

2024 yil 10.08

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
R.I. Xalmuradov
2024 yil 10.08



"MOLYAVIY TAHLIL" FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410600 – Bank ishi

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
BT1405	2025-2026	IV	5
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	6	
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	60	90	150
MOLIYAVIY TAHLIL			

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	I. FANNING MAZMUNI Fanni o'qitishdan maqsad – iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy holatini ifodalovchi turli axborot manbalaridan foydalangan holda ularning faoliyatidagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanilayotganligi haqida bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iboratdir. Fanning vazifasi – iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatiga xolisona baho berishni o'rganish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ichki imkoniyatlarni aniqlash, ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini talabalarda shakllantirishdan iboratdir.

Fan mazmuni	
M1	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) MOLIYAVIY TAHLIL FANNING NAZARIY ASOSLARI Tahlilning zamonaviy boshqaruvdagi roli, o'rni va ahamiyati. Moliyaviy tahlil fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari. Moliyaviy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Tahlil metodining o'ziga xos xususiyatlari, uning boshqa fanlardan farqli jihatlari nimalardan iborat. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan usullar: an'anaviy (taqqoslash, balans, o'rta miqdorlar, zanjirli almashitirish, indeks, farqli, nisbiy ko'rsatkichli kabi) va iqtisodiy matematik (integral, chiziqli va chiziqsiz dasturlash, nazariy o'yin, korrelyatsiya va regreysiya, determinant, logarifm kabi) usullar. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari: moliyaviy hisobotni o'qish, gorizontol, vertikal, trend, qiyosiy, omilli, koeffitsiyentlar tahlili. Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy tahlil subyektlari (haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar,

	xaridorlar, xodimlar, shuningdek, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar) va ularning qiziqishlari.
M2	MOLIYAVIY TAHLILNI TASHKIL ETISH VA AXBOROT MANBALARI Moliyaviy tahlilni tashkil etish, yuritish, xulosalarni shakllantirish sohasidagi munosabatlarni, tartibga solishning me'yoriy asoslari. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari. Moliyaviy tahlilni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'lam, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarni hisobga olish. Moliyaviy tahlilning asosiy bo'limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog'ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash. Moliyaviy tahlil bosqichlari. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari (tahlil obyektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkorligi. KORXONANING OPERATSION FAOLIYATINI TAHLILI Operatsion faoliyat tahlilining mazmuni va muhim vazifalari. Korxona faoliyatining turlari: operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat. Operatsion faoliyat tahlili va uning muhim jihatlari. Mahsulot (ish, xizmat)larning tarmoq va faoliyat tavsifi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat va foyda aloqadorligini tahlili (CVP tahlil) Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili. Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili. Mahsulot assortimentini boshqarish va ishlab chiqarish maromiyligi tahlili. Sotish hajmini tahlili. Korxona operatsion faoliyati samaradorligini (mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, innovatsion mahsulot, eksport hajmi ko'rsatkichlarini) baholash.
M3	
M4	ISHLAB CHIQAIRISH VA DAVR XARAJATLARI TAHLILI Xarajatlar tahlili maqsadi, mazmuni va vazifalari. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tahlili. Xarajatlarni umumiy hajmi va ularni asosiy elementlari bo'yicha baholash, tahlil qilish. Xarajatlarni faoliyat turlari, javobgarlik markazlari kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha tahlili. Moddiy, mehnat haqi, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish xarajatlari tahlili.
M5	BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI Buxgalteriya balans tahlili mazmuni va vazifalari. Buxgalteriya balans va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar. Balans ma'lumotlari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi. Korxona moliyaviy holatining tahlili. Buxgalteriya balansini "o'qish". Buxgalteriya balansining gorizontol (davriy) tahlili. Buxgalteriya balansining vertikal tahlili. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini

	tahlili. Buxgalteriya balans moddalarining likvidlik bo'yicha turkumlanishi.
M6	MOLIYAVIY BARQARORLIK TAHLILI Moliyaviy barqarorlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri. Moliyaviy barqarorlik va uning tiplari: mutlaq va me'yoriy barqarorlik, nobarqaror va inqirozli holatlar. Korxonaning o'z aylama mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili. Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq koeffitsiyentlar va ularning tahlili. Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili. Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilash.
M7	KREDITGA LAYOQATLILIK TAHLILI Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kreditga layoqatlilikning tavsifi. Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash tizimi va ballik (skoring) baholash tizimi. Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklari kredit siyosatining o'ziga xos jihatlari. Kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar tahlili. Korxonaning ishonchligini baholash. Korxona raqobatdoshligining tahlili. Daromad tahlili. Kreditlarning muddatligi va maqsadligi bo'yicha ishlatilish tahlili. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi.
M8	DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI Debitorlik, kreditorlik qarzlari tahlilining mazmuni, ularni tahlil qilish maqsadi va vazifalari. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning shakllanishi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi va muddati bo'yicha tahlili. Qarzdorlik dinamikasining natijaviy va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili (qarzlarning aylanuvchanligi va qoplanuvchanligi tahlili). Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari va ular yuzasidan rezervlar tahlili.
M9	MOLIYAVIY NATIJALAR VA RENTABELLIK TAHLILI Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarining biri biri bilan bog'liqligi. Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo'llari.
M10	PUL OQIMLARI TAHLILI Xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilning muhimligi va asosiy vazifalari. Korxonaning pul mablag'lari bilan

	ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi. Pul oqimlarini bashoratlash. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili. Pul oqimlarini tahlil qilishning to'g'ri va egri uslubi. Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlili. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash. Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili.
M11	XUSUSIY KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Xususiy kapital va uning o'zgarishini tahlili. Xususiy kapitalning dinamik tahlili. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili.
M12	KORXONALAR IQTISODIY NOCHORLIGI (BANKROTILIGINI) BAHOLASH VA TAHLIL QILISH. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning obyektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalari. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari. Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili. Iqtisodiy holat nobarqarorligi. Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili va bankrotlikni aniqlashning turli modellari. Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya, tugatishning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish.
M13	KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI REYTING BAHOLASH VA TAHLIL QILISH Raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati, tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari. Korxonalar moliyaviy holatni va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimi va ularga qo'yiladigan talablar. Reyting baholash amaliyoti. Korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligi bo'yicha reyting ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili. Reyting baholash bo'yicha korxonalarni ranjirish. Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.
M14	MOLIYAVIY HISOBOT ELEMENTLARINI BASHORATLASH. Moliyaviy hisobot elementlarini ahamiyati, maqsadi va tahlil vazifalari. Aktivlar, kapital va majburiyatlarini bashoratlash. Daromadlar va

	xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tamarxi, operatsion daromad va xarajalar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash. Pul mablag'larini naqdligini bashoratlash. Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni bashoratlash. Bashorat ko'rsatkichlarining ishonchligini baholash hamda bashoratlashdagi kamchiliklar.
	MOLIYAVIY NATIJALAR HISOB Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari. Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi. Daromadlarni tan olish va baholash. Asosiy faoliyatining boshqa daromadlarini hisobga olish. Davr xarajatlari tarkibi va hisobi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni hisobda aks ettirish. Favqulodda foyda va zararlar hisobi. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash va soliqqa tortish. Sof foyda va uning ishlatilishini hisobda aks ettirish.
M15	
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)	
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
S1	Moliyaviy tahlil fanining nazariy asoslari
S2	Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari
S3	Korxonaning operatsion faoliyatini tahlili
S4	Ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili
S5	Buxgalteriya balans tahlili
S6	Moliyaviy barqarorlik tahlili
S7	Kreditga layoqatlilik tahlili
S8	Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili
S9	Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili
S10	Pul oqimlari tahlili
S11	Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili
S12	Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish.
S13	Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish
S14	Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash
S15	Moliyaviy natijalar hisobi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

“Moliyaviy tahlil” fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejas

Nº	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Moliyaviy tahlil fanining nazariy asoslari

2.	Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari
3.	Korxonaning operatsion faoliyatini tahlili
4.	Ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili
5.	Buxgalteriya balans tahlili
6.	Moliyaviy barqarorlik tahlili
7.	Kreditga layoqatlilik tahlili
8.	Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili
9.	Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili
10.	Pul oqimlari tahlili
11.	Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili
12.	Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish.
13.	Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish
14.	Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash
15.	Moliyaviy natijalar hisobi
16.	Hisobotlarni tuzish va taqdim etish
“Moliyaviy tahlil” fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talabalariga muvofiq talabalar, o'quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.	

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun asosiy ilmiy va nazariy bilimlarni qo'llash;
- moliya sohasidagi tushunchalar va toifalarni;
- buxgalteriya hisobining informatson texnologiyalarga asoslangan hamda soddalashtirilgan strategiyalarni;
- hujjatlar va ular haqida tushuncha. Hujjatlar aylanishi haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lish*;

	• tizimli va qiyosiy tahlil qilish; • tadqiqot qobiliyatiga ega bo'lish; • muammoni hal qilishda fanlararo yondashuvga ega bo'lish; • texnik qurilmalar, axborotni boshqarish va kompyuter ishlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish; • zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish; • yangi texnologiyalarni yaratish, ularning raqobatbardoshligini va iqtisodiy samaradorligini baholash uchun buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning me'yoriy huquqiy asoslari ishlab chiqish; • iqtisodiy siyosat choralarini baholash va mikro - va makro darajasida strategik qarorlar qabul qilish uchun analitik materiallarni tayyorlash <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • <i>munozara</i>; • <i>o'z-o'zini nazorat</i>; • "Aqliy hujum"; • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:	
1.	E.Ergashev. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. – Darslik – T.: Konsauditinform – Nashr nashryoti, 348 bet.
2.	Moliyaviy tahlil. Darslik. / B.A.Xasanov, M.Y.Raximov, Z.A.Muqumov, A.I.Aliqulov, A.B.Jumanova, N.SH.Xajimuratov, R.B.Xasanova; – T.: "Iqtisodiyot", 2019. – 736 b.
3.	Sh.A.Tojiboyeva. Moliyaviy tahlil-2. Darslik. -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 - 424 b.
4.	Moliyaviy tahlil. Darslik. / M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 736 b.
QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:	

1.	"2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2.	Иванова Л.И., Бобылева А.С. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2022. – 332 с.
3.	Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: Print Line Group. 2017.-533 b. (Ushbu kitob universitet ARMdada PDF variantda mavjud).
4.	Raximov M.Yu., Xajimuratov N.Sh., Kalandarova N.N. Moliyaviy hisobot tahlili. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2022. -517 b. (Ushbu kitob universitet ARMdada mavjud).
AXBOROT MANBALARI:	
1.	https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2.	https://senat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti
3.	https://parliament.gov.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti
4.	https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
5.	https://www.inv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
6.	https://mehnat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti
7.	https://gov.uz/en/miit – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti
8.	www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti.
9.	https://soliq.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti
10.	https://www.bojxona.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining rasmiy veb-sayti
11.	https://www.lex.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil " " dagidagi ___-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Z.T.Bakayev. – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.f.d., dotsent.
9.	Taqrizchilar: A.M.Abduraimov – SamDU, «Raqamli iqtisodiyot» kafedrasini dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi. +998 77 067 90 09 L.Maxmudov – SamISI, «Real iqtisodiyot» kafedrasini dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. +998 97 913 60 19

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi

 Rais: Z.T.Bakayev
Kafedra mudiri: Z.T.Bakayev
Instituti direktori: Sh.D.Djurakulov
Sharof Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: A. S. Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasini dotsenti Z.T.Bakayev muallifligida tayyorlangan "Moliyaviy tahlil" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60310500-Raqamli iqtisodiyot, 603010700 – Bank ishi va audit bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Moliyaviy hisobot tahlili" fani bo'yicha o'zlashtirish lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi bozor munosabatlari sharoitida talabalarga moliyaviy hisobot tahlilining metodi va amaliyoti sohasida kasbiy bilimlar va zaruriy o'quv malakasini shakllantirishdir.

Ushbu fan "Moliyaviy hisobot tahlili" deb nomlanib, unda sizga xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv va moliyaviy hisob ma'lumotlari tahlili hamda ularni tahlil etish tartiblari o'rgatiladi. Bu kurs uchinchi kursning oltinchi semestrida o'qitilishi rejalashtirilgan. Fanning asosiy jihati xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatidagi moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish holatiga baho berish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini o'rganish, xo'jalik subyektlari moliyaviy holatini buxgalteriya balans ma'lumotlari asosida tahlilning turli usullari orqali baholash, xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini sog'lomlashtirish masalalarini o'rganish, moliyaviy natijalar va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, debitorlik va kreditorlik qarzlarga baho berish, asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligiga baho berish, pul oqimlari hamda xususiy kapitaldagi o'zgarishlarni tahlil qilish masalalarini o'rganasiz.

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60310500-Raqamli iqtisodiyot, 603010700 – Bank ishi va audit ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalanishga tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Real iqtisodiyot kafedrasini dotsenti

L.Maxmudov



IMZONI TASDIQLAYMAN
Saniisi
XODIMLAR BQ'IMI BOSHLOGI